

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.08/28.08.2020.San.121.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ERGASHEV MURODBEK IKROMOVICH

MUSIQA TA’LIMIDA O‘QUVCHILARNING KREATIV VA IJTIMOY
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (musiqa ta’limi)

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Содержание автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation

Ergashev Murodbek Ikromovich

Musiqa ta’limida o‘quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish..... 3

Эргашев Муродбек Икрамович

Развитие креативных и социальных компетенций учащихся в музыкальном образовании..... 21

Ergashev Murodbek Ikromovich

Development of creative and social competencies of learners in music education..... 41

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 45

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.08/28.08.2020.San.121.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ERGASHEV MURODBEK IKROMOVICH

MUSIQA TA’LIMIDA O‘QUVCHILARNING KREATIV VA IJTIMOY
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (musiqa ta’limi)

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.Phd/Ped6678 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.dsmi.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Artikova Muhayyoxon Botiraliyevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Egamberdiyeva Turg'unoy Ahmadjanovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Baxriyev Axmad Raxmatovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.08/28.08.2020.San.121.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2025-yil 4-aprel soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och dahasi, 127 "A"-uy. Tel.: (+99871) 230-28-02; faks: (+99871) 230-28-15; e-mail: uzdsmi@madaniyat.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (20-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och dahasi, 127 "A"-uy. Tel.: (+99871) 230-28-58; faks: (+99871) 230-28-15).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 20-mart kuni tarqatildi.

(2025-yil 20-martdagi 4-raqamli reyestr bayonnomasi).



N.J.Isakulova
ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi,
pedagogika fanlari doktori, professor

J.A.Mamatqosimov
ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotiibi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

A.A.Umarov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, sotsiologiya
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda musiqa ta'limi sohasini modernizatsiyalash, o'qitishning didaktik asoslarini innovatsion rivojlanish tendensiyalariga muvofiq takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida ta'lim oluvchilarda san'at vositasida estetik did, dunyoqarash, go'zallikka intilish kabi sifatlarni shakllantirish, madaniy immunitetni tarkib toptirish, ta'lim samaradorligini oshirishda o'tmishning madaniy merosidan foydalanish orqali o'quvchilarda turli kompetensiyalarni rivojlantirish, ijtimoiy ko'nikmalarni egallashga doir yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo bo'yicha musiqa ta'limining nazariy va amaliy bilimlar bilan o'zaro aloqadorligi, musiqa ta'limida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish, musiqa ta'limini kompetensiyaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish, o'quvchilarda turli fanlar kesimida ijtimoiy munosabatlarni qaror toptirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Zamonaviy sharoitda innovatsion tarzda o'zgarib borayotgan jamiyat hamda raqobatbardosh ta'lim tizimi o'z oldiga kreativ va ijtimoiylashuv ko'nikmalariga ega bo'lgan o'quvchilarga talabni oshirmoqda. Ayniqsa, musiqiy asarlar, musiqiy meros, musiqaning pedagogik-psixologik ta'siri, tarbiyaviy ahamiyati va didaktik imkoniyatlaridan foydalangan holda, o'quvchilarda ijodiy-estetik qarashlarni shakllantirish, ularda kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarni tarkib toptirishga oid izlanishlar salmog'ini oshirish zarurat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan e'tiborga molik ishlar, xususan, ilm-fan, ta'lim-tarbiya, madaniyat, san'at va adabiyot sohasidagi izchil rivojlanishlar asosida ko'zga tashlanmoqda. Xususan, "madaniyat va san'at sohasida iste'dodli yosh ijodkorlarni izlab topish va qo'llab-quvvatlash, ta'lim muassasalarini milliy cholg'ular, musiqa darsliklari, notalar to'plamlari va o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlashning yaxlit tizimini yaratish"¹ maqsadida keng ko'lamli vazifalar amalga oshirilmoqda. Ta'lim jarayonida musiqa ta'limi orqali o'quvchilarda turli qobiliyatlarni rivojlantirish, musiqiy bilim va ko'nikmalarni oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo'lgan muhabbatni shakllantirish, yosh iste'dodlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlash, shuningdek, o'quvchilarning ta'lim makonida raqobatbardoshligiga erishish, ularning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish muhim o'rin tutmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 11-maydagi PF-134-son "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida" farmonlari, 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son "Ta'lim-tarbiya tizimini

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-112-son Qarori / Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.02.2022-y., 07/22/112/0099-son. URL:<https://lex.uz/uz/docs/-5849580>.

yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-son “Madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamiz olimlaridan M.Axmedova, M.Ashirmatova, F.Exsonova, G.Ibragimova, N.Muslimov, Sh.Pozilova, M.Sa‘dullayeva, M.Turaboyeva, Sh.Sharipov kabi pedagog-olimlarning izlanishlari doirasida ta‘limga kompetensiyaviy yondashuvni tatbiq etish, ta‘lim tizimining turli bosqichlarida o‘quvchi-yoshlarda kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishning ilmiy-nazariy, metodik jihatlariga e‘tibor qaratilgan. Shuningdek, M.Axmedov, Z.Ahmedova, A.Baxriyev, R.Oripova, Q.Panjiyev, T.Rajabov, J.Yarashevlar¹ tomonidan musiqa madaniyati va musiqa ta‘limi orqali ta‘lim oluvchilarda turli qobiliyatlarni takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan D.Bogoyavlenskaya, A.Belkin, A.Davtyan, Y.Ilin, S.Krasnokutskaya, Y.Mironenko, T.Mixeyeva, Y.Varlakova, M.Zinovkina va A.Shumovskayalar zamonaviy ta‘limda kompetensiyaviy yondashuvning ustuvorlik xususiyatlari, ta‘lim sharoitida o‘quvchilarda turli kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyatlari, kreativ va ijtimoiy kompetensiyaning tuzilishiga oid muammolarga ahamiyat qaratgan hamda O.Asriyeva, O.Blox, M.Kurbatov, A.Spirin, Y.Smolina² kabilar tomonidan zamonaviy musiqa ta‘limini tashkil etish usullari, musiqaning o‘quvchi shaxsi

¹ Axmedova M.T., Ashirmatova M.E. O‘quvchilarda ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish shart-sharoitlari // Ta‘lim va rivojlanish tahlili. Onlayn ilmiy jurnal. 2023. Vol. 3 no. 4. URL:<https://sciencebox.uz/index.php/ajed/article/view/6494>; Exsonova F.T. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmini takomillashtirish: Ped. fan. fal. dok. diss. – Namangan davlat universiteti: 2020. – 135 b.; Ibragimova G. Interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish: ped. fan. fal. dok. diss. – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.: 2017. – 155 b.; Muslimov N.A., va boshqalar Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: Sano standart, 2015.; b-120.; Turaboyeva M.R. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining shaxsiy-kreativ kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi: Ped. fan. fal. dok. diss. – Farg‘ona davlat universiteti.: 2022. – 168 b.; Ahmedova Z.K. Milliy musiqa madaniyati va uning yoshlar manaviyatini shakllantirishdagi roli: Fal. fan. nom. diss. – O‘zbekiston milliy universiteti.: 2011. – 163 b.; Yarashev J.T. Musiqa ta‘limi yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash samaradorligini oshirishda aksiologik yondashuv: Ped. fan. fals. dok. diss. avtoref. – Samarqand davlat universiteti.; 2020. – 56 b.

² Богоявленская Д.Б. Измерение креативности – описание индивидуальности: психология индивидуальности // Материалы Всероссийской конференции. – М.: 2006, – С. 87-90.; Белкин А.С. Компетентность, профессионализм, мастерство. – Челябинск: ОАО Южно-Уральский кн. Изд-во, 2004. – 176 с.; Курбатов М. “Несколько слов о художественном исполнении на фортепиано”. – М.: Музыка. 1989.; Спирин А.В. Формирование социальной компетентности студентов в межвузовском образовательном пространстве: Автореф. Дис... канд. пед. наук. – Кострома, 2010. – 21 с.; Смолина Е. “Современный урок музыки”. Ярославль. Академия развития. 2006.; Асриева О.О. Музыкально-эстетическое воспитание обучающихся на ступени основного общего образования. Дисс...док. пед. наук. – Омск, 2020. – 228 с.; Блох О.А. Развития духовно-творческого потенциала учащихся-музыкантов. Дисс...автореф. док.пед.наук. 2012.;

rivojlanishiga ta'siri haqida atroflicha fikr yuritilgan.

Xorijlik olimlardan F.Barrom, J.Guilford, N.Herrmann, B.Jonson, D.Simonton, E.Torrens¹ kabilarning tadqiqotlarida kreativlik, kreativlik tabiati, kreativlik va ta'lim, kreativlik va ijtimoiylashuv tushunchalarining mazmun-mohiyati pedagogik-psixologik nuqtai nazardan ko'rib chiqilgan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Andijon davlat pedagogika institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari muvofiq "Sohada ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish uyg'unligini ta'minlash orqali ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan amaliy va innovatsion tadqiqotlarni amalga oshirish" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi musiqa ta'limida o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

musiqa ta'limida o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini, differensial jihatlarini musiqiy faoliyatda empirik baholash orqali aniqlashtirish;

o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish bosqichlari mazmuni struktural modellashtirish asosida komillashtirish;

musiqa ta'limida o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishning metodik ta'minotini takomillashtirish;

o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish modelini takomillashtirish.

Tadqiqotning obykti sifatida musiqa ta'limida o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Andijon, Namangan va Samarqand viloyatlaridan jami 1066 nafar o'quvchilar ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmetini musiqa ta'limida o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni, shakli va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda pedagogik kuzatuv, nazariy-mantiqiy tahlil, qiyosiy tahlil, pragmatik tahlil, tasniflash, suhbat, matematik-statistik tahlil, struktural tahlil, anketa-so'rovnomalari, pedagogik tajriba-sinov kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

musiqa ta'limida o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari o'quvchilarning musiqani tinglash istagining dastlabki shakllantirish bosqichidagi differensial jihatlarini musiqiy ta'lim mazmunini didaktik identifikatsiya qilish hamda faollashtirishga yo'naltirilgan holda empirik baholash asosida aniqlashtirilgan;

musiqa ta'limida o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini

¹ Barrom F. Putting creativity to work en Sternberg, RJ (ed.) The Nature of Creativity / – Reino Unido: Cambridge University, 1988.; Guilford J.P. Creativity // American Psychologist. 1950. Vol. 5, Issue 9. – P. 444-445.; Herrmann N. The Creative Brain, Insights into creativity, communication, management, education and self-understanding // The Ned Herrmann Group, 1995. – 186 p.; Jonson B. 4 Ways to Develop Creativity in Students. George lucas educational foundation. 2019. – P. 35; Simonton D.K. Creativity: Cognitive, developmental, personal and social aspects // American Psychologist. – 2000. – Vol. 55. – P. 151-158.; Torrance E.P. The nature of creativity as manifest in the testing // R.Sternberg, T.Tardif (eds). The nature of creativity. Cambridge: Cambr. Press. – 1988. – P. 43-75.

rivojlantirish bosqichlari mazmuni o'quvchilarning rivojlanish strategiyasini kasbiy rivojlantirish kontekstida pedagogik va evtagogik struktural modellashtirish asosida takomillashtirilgan;

musiqa ta'limida kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishning metodik ta'minoti mustaqil ijodkorlikni qo'llab-quvvatlovchi muhit bilan ijodiy laboratoriyalar va musiqiy loyihalar integratsiyasining intensivlik darajasi barqarorligini statistik korrelyatsiya qilish asosida takomillashtirilgan;

musiqa ta'limida o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli individual va jamoaviy kuylash hamda professional ijro sifatlarining kasbiy rivojlanish darajasi bilan uslubiy-didaktik, dasturiy-mazmuniy aspektlarini konseptual-funksional integratsiyalash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish mezonlari va ko'rsatkichlari aniqlashtirilgan;

musiqa ta'limida o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari aniqlashtirilgan;

o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan "Music book" ilovasi ishlab chiqilgan;

"An'anaviy xonandalik" nomli darslik va o'quv qo'llanmasi tayyorlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan nazariy ma'lumotlar va metodlar ishonchli manbalardan olingani, keltirilgan tahlil va mulohazalar, tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik metodlar vositasida asoslangani, xulosa va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilgani hamda olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati musiqa ta'limida o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, didaktik imkoniyatlari bosqichlari aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishning metodik ta'minoti, modeli, mezon va ko'rsatkichlaridan umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-7-sinflarida o'tiladigan "Musiqqa madaniyati" fanidan yangi avlod adabiyotlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Musiqa ta'limida o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy natijalar asosida:

musiqa ta'limida o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari o'quvchilarning musiqani tinglash istagining dastlabki shakllantirish bosqichidagi differensial jihatlarini musiqiy ta'lim mazmunini didaktik identifikatsiya qilish hamda faollashtirishga yo'naltirilgan holda empirik baholash asosida aniqlashtirishga oid taklif va tavsiyalardan 2017-2020-yillarda bajarilgan A1-XT-0-92997-raqamli "Yoshlarni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uyg'unligi asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning muammolari" mavzusidagi amaliy tadqiqot loyihasi doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy

rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot institutining 2023-yil 11-oktyabrdagi 01/09-480-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'quvchilarning musiqa ta'limi vositasida kreativ va ijtimoiy kompetensiyalari, shuningdek estetik, ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga ustuvorlik berish asosida o'qitishning intensivligi ta'minlangan;

musiqa ta'limida o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish bosqichlari mazmuni o'quvchilarning rivojlanish strategiyasini kasbiy rivojlantirish kontekstida pedagogik va evtagogik struktural modellashtirish asosida takomillashtirilga oid taklif va tavsiyalardan "An'anaviy xonandalik" nomli o'quv qo'llanmasi tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 14-avgustdagi 418-son buyrug'iga asosan berilgan nashr ruxsatnomasi). Natijada, o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari hamda samaradorligini oshirishga erishilgan;

musiqa ta'limida kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishning metodik ta'minoti mustaqil ijodkorlikni qo'llab-quvvatlovchi muhit bilan ijodiy laboratoriyalar va musiqiy loyihalar integratsiyasining intensivlik darajasi barqarorligini statistik korrelyatsiya qilish asosida takomillashtirilga oid taklif va tavsiyalardan "An'anaviy xonandalik" nomli darsligini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-avgustdagi 391-son buyrug'iga asosan berilgan nashr ruxsatnomasi). Natijada, musiqa ta'limi vositasida kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish hamda musiqa madaniyatiga doir nazariy va amaliy faoliyatga motivatsiyasini oshirishga erishilgan;

musiqa ta'limida o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli individual va jamoaviy kuylash hamda professional ijro sifatlarining kasbiy rivojlanish darajasi bilan uslubiy-didaktik, dasturiy-mazmuniy aspektlarini konseptual-funksional integratsiyalash asosida takomillashtirilga oid taklif va tavsiyalardan "Yoshlarni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uyg'unligi asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning muammolari" mavzusidagi amaliy tadqiqot loyihasi doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialining 2023-yil 11-sentyabrdagi 461-son ma'lumotnomasi). Natijada, kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishga ta'sir qiluvchi omillarni hisobga olgan holda, o'quvchi-yoshlarda musiqa ta'limining mazmuni, mohiyati va tamoyillarini anglash imkoni oshirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, jumladan, 8 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tuzilishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 139 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, shuningdek, obykti va predmeti, ishning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e‘lon qilinganligi, dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar kiritilgan.

Dissertatsiyaning **“Musiqqa ta‘limida o‘quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida “kreativ kompetensiya” va “ijtimoiy kompetensiya” tushunchalarining kontekstual tahlili, o‘quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari hamda musiqa ta‘limida o‘quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishning bugungi kundagi mavjud imkoniyatlari yoritilgan.

Zamonaviy sharoitda kreativ va ijtimoiy kompetensiyani rivojlanlantirish ham individual, ham ijtimoiy hayot uchun obyektiv ehtiyojdir. Kreativ barkamol bo‘lish – kundalik va o‘quv faoliyatida ijobiy noodatiylikni namoyon etish, ta‘lim olish jarayonida topshiriqlarga original javoblar va yechimlarni keltirish kabilarda aks etsa, ijtimoiy barkamol bo‘lish – bu biologik ritmlarni (uyqu, ishtaha, holat, kayfiyat, o‘qish, faoliyat) ijtimoiy ritmlar (mas‘uliyat hissi, majburiyatlar, huquqlar, ehtiyojlar)ni anglashni va me‘yor darajasida amal etishni nazarda tutadi.


Jamiyat bugungi innovatsion davrda yuksak bilim olgan o‘quvchilarning kreativ g‘oyalardan manfaatdor bo‘lib, ularning o‘z kreativ kompetensiyasini ijtimoiy muhitda namoyon etishi uchun yana bir imkoniyat hisoblanadi.

Kreativlik bevosita ijtimoiy muhit bilan aloqadorlikda rivojlanadi yoki aksincha, uning ijtimoiy bilimlari, ijtimoiy kompetensiyasi ortgani sayin yangi bilimlar, kreativ g‘oyalarga bo‘lgan qiziqishlari ham ortib boradi. Umuman olganda, kreativ kompetensiya va ijtimoiy kompetensiya bir-birini to‘ldiruvchi va rivojlantiruvchi xususiyatga ega.

Ta‘limda o‘quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish maktab faoliyati, o‘qituvchilarning ishlash samaradorligi, “o‘qituvchi va o‘quvchi” o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga bog‘liq bo‘lib, ushbu jarayonlarning yakuniy xarakteristikasini ifoda etadi.

Mamlakatimizdagi uchinchi renessans davri inson faoliyati uchun ijtimoiy kontekstlarni o‘rnatishdan boshlanadi. Bunda o‘rnatilgan an‘analardagi o‘zgarishlar, odamlarning turmush tarzi, muloqot uslubi va o‘zaro munosabatlari xilma-xillikda tavsiflanadi. Shaxsning, yosh avlodning rivojlanishiga qo‘yilgan mavjud talablar yangilanib, ta‘limdagi islohotlarni yuzaga keltiradi va bu ta‘limdan kutilayotgan natijani sezilarli darajada oshiradi. Mazkur jarayonda ijtimoiy munosabatlarga munosib javob beradigan, ijodiy o‘shishga qodir va professionallik darajasida o‘z-o‘zini takomillashtiruvchi, shaxsiy resurslarni doimiy ravishda yangilab boruvchi mutaxassislar talab ortadi.

Izlanishlar davomida o‘quv jarayonida o‘quvchilarda kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish shart-sharoitlari aniqlandi (1-rasmga qarang):



1-rasm. O'quvchilarda kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishning shart-sharoitlari

O'rganilgan ilmiy-nazariy adabiyotlar tahliliga ko'ra aytish joizki, musiqa san'at turlarining eng qadimiysidir. Uning tarixi diniy, maishiy marosimlar va ijtimoiy marosimlardan kelib chiqadi. Biroq, san'at turi sifatida inson ma'lum bir balandlikdagi tovushlarni rejimlar, o'lchovlar va ritmik ohanglar yordamida tartibga solish mumkinligini anglab yetmasdan oldin ham, ovozi signallar mavjud edi.

Musiqa ta'limida o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari o'quvchilarning musiqani tinglash istagining dastlabki shakllantirish bosqichidagi differensial jihatlarini musiqiy ta'lim mazmunini didaktik identifikatsiya qilish hamda faollashtirishga yo'naltirilgan holda empirik baholash asosida aniqlashtirilgan. B.Blum taksonomiyasiga¹ ko'ra tafakkurning rivojlanishi *bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, umumlash, baholash* darajalarida bo'ladi. Bular quyidagi belgilar hamda har bir darajaga muvofiq fe'llar namunalarini bilan ham ifodalanadi:

1. *Bilish* – o'rgatilayotgan mavzu yoki musiqiy asarni bilib olish va qayta aytib bera olish o'quvchining musiqiy ta'lim sohasida bilimlarni chuqur egallash.

2. *Tushunish* – o'rganilgan mavzu yoki musiqiy asarlarni xotirada saqlab qolish, mazmun-mohiyatini, xarakterini idrok etish va tushunganligini namoyon qilish, jarayon yoki turli holatlarga tanqidiy baho bera olish, bahs-munozaralarda ishtirok eta olish, o'zining fikri va qarashlarini musiqa ta'limida olgan bilimlari asosida himoya qila olish.

3. *Qo'llash* – musiqa ta'limida o'rganilgan umumiy tushuncha, atamalarni misollar orqali tatbiq eta olish hamda samarali qo'llay olish, jamoada ishlay olish va ijodkorlik, yetakchilik qobiliyatlarini namoyon etish, boshqalar bilan birgalikda samarali mehnat qila olish.

4. *Tahlil* – berilgan amaliy va nazariy topshiriqlarni hal qilish uchun zarur ma'lumotlarni turli manbalardan topish, tartibga keltirish, tahlil qilish xulosa chiqarish.

¹[https://ru.wikipedia.org/wiki/ Таксономия_Блума](https://ru.wikipedia.org/wiki/Таксономия_Блума)


5. *Umumlashtirish* – mavzularni, musiqiy asarlarni, musiqiy adabiyotlarni tadbiq qilishda, qaror qabul qilishda aniq va puxta dalillar keltirishdan foydalanish, tizimli voqealar, hodisalar, vaziyatlar o‘rtasidagi uzviylikni anglash.

6. *Baholash* – musiqa olamidagi voqea va hodisalarga baho bera olish, muammoli vaziyatni ma’lum ichki yoki tashqi mezonlar asosida baholash va taqqoslash, sabab va oqibatlarini o‘rganish, erishilgan yoki erishilayotgan natijalarni tahlil qilish asosida tanqidiy va tizimli fikrlash.

Tadqiqot jarayonida musiqa ta’limida o‘quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishda quyidagi jihatlarga ahamiyat qaratildi: musiqa ta’limida o‘quvchilarni mustaqil ijodkorlikka, izlanishga tayyorlash va ularda musiqiy savodxonlikni rivojlantirish; musiqa ta’limi jarayonida o‘quvchilarga keng dunyoqarash va ijodkorlik g‘oyasini singdirib borish; musiqa ta’limida o‘quvchilarga vatanparvarlik, millatparvarlik, ijodkorlik, tashabbuskorlik, ijtimoiy faollik tushunchalari mazmunini singdirgan holda jamiyatdagi ishtirokini ta’minlash; musiqa ta’limida o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlashga o‘rgatish, o‘quv mashg‘ulotlaridagi faolligini oshirish asosida kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish.

Musiqa ta’limi darslarini o‘quvchilarda kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirish quyidagi imkoniyatlarni yuzaga keltirishi aniqlandi: o‘quvchilarda musiqiy ong va madaniyat shakllanishi jarayonida ijtimoiy munosabatlar rivojlanadi va ijodiy dunyoqarash o‘sib boradi; o‘quvchilarda musiqa san’ati tarixiga qiziqish, ularda ushbu san’atga nisbatan dahldorlik tuyg‘usini shakllantiradi hamda o‘quvchilarning ijodkorlik bilimlarini oshiradi; o‘quvchilar madaniy hayotdagi jarayonlarni o‘rganish natijasida, ijtimoiy hayotdagi huquq va majburiyatlarini anglab, tushunish yuzaga keladi va mustaqil qarashlar, yangi fikr-mulohazalar ko‘lami kengayadi; zamonaviy jamiyat har qanday jarayonlarda o‘zini boshqara oluvchi va o‘zining foydali kreativ xususiyatlarini namoyon etuvchi o‘quvchi-yoshlar bilan ta’minlanadi.

Musiqa ta’limida o‘quvchilardagi kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishda o‘qituvchilarning asosiy vazifalari bajarilsa maqsadga muvofiq hisoblanadi (2-rasmga qarang):



2-rasm. Musiqa ta’limida o‘quvchilardagi kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishda o‘qituvchilarning asosiy vazifalari

Musiqqa ta'limida o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun mamlakatimizda bugungi kunda musiqiy ta'lim rivoji uchun yaratilayotgan imkoniyatlardan samarali foydalanish, shuningdek, musiqqa ta'limiga zamonaviy yondashuvlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish katta ahamiyatga ega. Bu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun pedagoglar, ta'lim muassasalari va jamiyat birgalikda faoliyat yuritishi zarur. O'quvchi shaxsida kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarning mavjud holati, avvalo, bir qator tabiiy omillarga bog'liq holda aniqlanadi. Jumladan:

fan va ta'lim taraqqiyotining tabiiy shart-sharoitlari va ta'lim tizimining dunyo hamjamiyatiga jadal kirib borishi;

o'quvchilarning ijtimoiy muammolarini yechish zaruriyatining vujudga kelishi va ma'naviy madaniyatining rivojlanishiga bo'lgan ehtiyojning muhimligi;

ta'lim-tarbiya va madaniy hayotning tubdan o'zgarishi kabilar.

Milliy ta'lim tizimi umumiy o'rta ta'lim standartlari, o'quv-me'yoriy hujjatlar, ilmiy-nazariy adabiyotlar globallasuv jarayonlariga parallel ravishda takomillashtirish innovatsion yondashuvlarni tatbiq etishni talab etadi.

Dissertatsiyaning **“Musiqqa ta'limida o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida musiqqa ta'limida o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishda musiqiy-emotsional intellektning ahamiyati, rivojlantirish bosqichlari, modelyoritilgan.

Tadqiqot doirasida o'rganilgan ilmiy adabiyotlar tahlillariga ko'ra, “hissiy intellekt” insonga o'zi va boshqalarning his-tuyg'ularini tushunishga yordam beradi, bilim va samaradorlikni oshiradi, qaror qabul qilish va tashqi dunyo bilan uyg'un munosabatlarni o'rnatish qobiliyatini berishiga ishora qiladi. Hissiy intellekt zamirida ongli yondashuv, aqliy boshqaruv, empatiya tushunchalari yotadi. Shu sababli, musiqiy-emotsional intellekt orqali o'quvchilarda quyidagi kreativ va ijtimoiy kompetensiyalar rivojlanadi:

umuminsoniy sifatlar: vatanparvarlik, yurtsevarlik, xalqparvarlik, insonparvarlik, tinchliksevarlik, fidoiylk, mardlik;

axloqiy sifatlar: kamtarlik, ezgu ishlar qilish, diyonatli bo'lish, rostgo'ylik, halollik, oriyatlilik, hayoli bo'lish, kattalarni ulug'lash, kichiklarga izzatda bo'lish;

boshqaruvchilik uquvi: guruh bilan ishlash, yetakchilik, murosaga kelish, ziddiyat, nizo, kelishmovchilik va mojarolarni oqilona hal eta bilish, ijro intizomi;

muloqot odobi: xushmuomalalik, o'z fikrini aniq va ravon ifoda eta bilish, o'zgalar fikrini tinglash, qabul qilish va munosabat bildira olish darajasi;


fikrlash qobiliyatlari: tahlil qilish, sintezlash, taqqoslash, umumlashtirish, tasniflash quvvatiga egalik;

ijodkorlik qobiliyatlari: boy tasavvur, go'zallikni idrok etish va yaratishga intilish kabilar shular jumlasidandir.

“Musiqqa madaniyati” fani ham o'quvchilarda insoniy fazilatlar, go'zal axloqiy sifatlar, kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqqa ta'limi nafosat va go'zallik manbai bo'lib, o'quvchilarga estetik tarbiya berish, ularning tuyg'ularini shakllantirish hamda ijtimoiylashuvini ta'minlashda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Musiqqa, o'zining nozik estetik kuchi bilan,

o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishda beqiyos ta'sir ko'rsatadi.

Musiq ta'limida o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish bosqichlari mazmuni o'quvchilarning rivojlanish strategiyasini kasbiy rivojlantirish kontekstida pedagogik va evtagogik struktural modellashtirish asosida takomillashtirilgan. Musiq ta'limida o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish besh bosqichdan iborat etib belgilandi (3-rasmga qarang):




3-rasm. Musiq ta'limida o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish bosqichlari

Har bir bosqichda o'quvchilarda musiq madaniyatiga oid bilimlarni hosil qilish, rivojlantirishni, kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini qaror toptirishni hamda umumta'lim maktablari 5-7-sinflarda "Musiq madaniyati" fani o'qitilishi doirasida, o'quvchilarga qo'yiladigan malaka talablariga muvofiq amalga oshirishni nazarda tutadi.

Musiq ta'limida o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli individual va jamoaviy kuylash hamda professional ijro sifatlarining kasbiy rivojlanish darajasi bilan uslubiy-didaktik, dasturiy-mazmuniy aspektlarini konseptual-funksional integratsiyalash asosida takomillashtirilgan. Mazkur model 5 ta komponentni o'z ichiga qamrab oldi va modelning amaliyotga tatbiqi musiq ta'limida o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish uchun asos bo'lib xizmat qildi (4-rasmga qarang).

Musiq ta'limida kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishning metodik ta'minoti mustaqil ijodkorlikni qo'llab-quvvatlovchi muhit bilan ijodiy laboratoriyalar va musiqiy loyihalar integratsiyasining intensivlik darajasi barqarorligini statistik korrelyatsiya qilish asosida takomillashtirilgan. Musiq fani o'qitilishida o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishda olib borilgan metodlar "Musiqani tavsiflovchi she'riy qiyoslar, metaforalar, epitetlar", "Musiqani haqida hikoyalar", "Musiq haqida suhbat", "Musiqiy esse yozish", "Bir-biridan so'rash" kabilardan foydalanildi.



4-rasm. Musiqa ta'limida o'quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli

Olib borilgan tadqiqot jarayonida o‘quvchilarning musiqa vositasida badiiy kreativligini rivojlantirishda “Atrofimizdagi tovushlar”, “Sahnaviy musiqa yoki klip olamiz”, “Men musiqani chizaman”, “Sirli musiqa asbobi”, “Musiqa asboblarisiz musiqa”, “Musiqani top”, “Muzlatilgan raqs”, “Ritmni – usulni takrorlang” kabi didaktik o‘yinlardan foydalanish ijobiy natijalarni keltirdi.

Dissertatsiyaning “**Musiqa ta’limida o‘quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik eksperimenti va uning natijalari**” deb nomlangan uchinchi bobida musiqa ta’limida o‘quvchilarning kreativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga doir tajriba-sinov ishlari mazmuni, bosqichlari, tadqiqot jarayonida amalga oshirilgan metodik ishlar o‘rganilib, tavsiflangan va matematik-statistik tahlili yoritib berilgan.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari uch bosqichda tashkil etildi:

1. Aniqlovchi bosqich: 2019-2020-o‘quv yili.
2. Izlanuvchi bosqich: 2020-2021-o‘quv yili.
3. Shakllantiruvchi bosqich: 2021-2022-o‘quv yili.
